

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI

**ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI
AVTOMATLASHTIRISH VA BOSHQARISH
KAFEDRASI**



**OLIY TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH MUHITIDA
INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR: MUAMMO VA
YECHIMLAR-2024**

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



**Kazan Federal
UNIVERSITY**

**14-15 mart 2024 yil
2-QISM**

JIZZAX-2024

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI

**ISHLAB CHIQUARISH JARAYONLARINI AVTOMATLASHTIRISH VA
BOSHQARISH KAFEDRASI**



**“OLIIY TA’LIMNI RAQAMLASHTIRISH MUHITIDA INNOVATSION
TEXNOLOGIYALAR: MUAMMO VA YECHIMLAR-2024”
xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

**“INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE DIGITALIZATION
ENVIRONMENT OF HIGHER EDUCATION: PROBLEMS AND
SOLUTIONS-2024”
international scientific-practical conference**

**«ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В СРЕДЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ
ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ-2024»
международной научно-практической конференция**

KONFERENSIYA MATERIALLARI TO‘PLAMI

**(O‘zbekiston Respublikasi, Jizzax shahri, 14-15 mart 2024 yil)
(2-QISM)**

JIZZAX-2024

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
“OLIV TA’LIMNI RAQAMLASHTIRISH MUHITIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR:
MUAMMO VA YECHIMLAR-2024” Jizzax, 14-15.03.2024

Э.М. ХОЛХУЖАЕВ. ОЦЕНКА АКТИВНОГО БЕЗОПАСНОСТИ ТРАНСПОРТНОГО СРЕДСТВА	748
A.U. BURLIYEV, N. SHUKUROVA. ISHLAB CHIQUARISHDA AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARUV TIZIMLARINI IXTISOSLASHTIRILGAN MEXATRON QURILMALAR BILAN INTELLEKTUALLASHTIRISH	754
F.S. KARIMOVA, S.A. SUNATULLAYEVA, O’A. ABDURAIMOVA. XAVFSIZ HARAKATNI TA’MINLASHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLARNING AMALIYOTGA TADBIQI	757
J.N. ABDUNAZAROV, A.O. NISHONOV. ANALYSIS OF PROBLEMS OF POPULATION MOBILITY AND PROSPECTS OF DEVELOPMENT	760
N.I. SHARIPOVA NODIRA, M.V. ANVAROVA. JIZZAX SHAXRI JAMOAT TRANSPORTIDA YO’LOVCHILARGA TRANSPORT XIZMATINI KO’RSATISH SIFATINI OSHIRISH METODIKASI	766
B.A. SAIDUSMANOV. O’ZBEKISTONDA TRANSPORT SOHASINING RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI (XX-ASRNING IKKINCHI YARMIDA TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA)	769
A.A. ERGASHOV. TRANSPORT LOGISTIKA TIZIMIDA MODDIY OQIM JARAYONLARINI QO’LLASH USULLARI	772
K.B. XAKKULOV. YO’L XARAKATI XAVFSIZLIGI VA UNING ZAMONAVIY YO’L TRANSPORTI EKSPERTIZASIGA RIVOJLANISH TA’SIRI	777
SHO’BA 5 ***** QURILISH VA ENERGETIKA SOHASIDA INNOVASION TEXNOLOGIYALAR TAHLILI. ***** SECTION 5 ANALYSIS OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE FIELD OF CONSTRUCTION AND ENERGY. ***** СЕКЦИЯ 5 АНАЛИЗ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СФЕРЕ СТРОИТЕЛЬСТВА И ЭНЕРГЕТИКИ.	
U.M. QUTLIMURODOV, U.I. KHATAMOV. THE IMPORTANCE OF TREATING WASTEWATER FROM METAL IONS	780
U.M. QUTLIMURODOV, O.A. ABDUMOMINOV. SUV MUOZANATINI BIRGALIKDA SAQLAYMIZ	784
A.E. JANIZAQOV, E.N. KULDASHEV. “YASHIL” ARXITEKTURA – O’ZBEKISTON ARXITEKTURASINING KELAJAGI	787
A.E. JANIZAQOV, D.M. NABIYEVA. SHAHARSOZLIKDA ENERGIYA SAMARADORLIGI	791
A.R. JABBOROV, D.SH. MUMINOVA. BAZALT TOLASINING BETONNING MUSTAXKAMLIGIGA TA’SIRINI TADQIQOTLASH	796
T.X. SAYFULLAYEV. FISHER-TROPSH SINTEZI REAKSIYASIDA BOSHLANG’ICH JARAYON	799
N.R. QUROLOVA, L.D. XUSANOV, V.A. SKRIPNYAK. TOMYOPMA QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARISH TEXNOLOGIYALARI VA KORXONA SUV TA’MINOTINING YOPIQ ZANJIRLI TIZIMINI JORIY QILISHNI IQTISODIY	803

Xulosa qilib aytganda iaharda yo‘lovchi transportida tashish jarayonlarini boshqarish – yo‘lovchi oqimlarini va tegishli axborotlarni jo‘natuvchi manzildan etib borish manziliga etkazishni samarali rejalashtirish va boshqarish asosida aholining harakatlanishga bo‘lgan ehtiyojini samarali qondirishdan iborat. Ko‘rsatilishi rejalashtirilayotgan transport xizmatining maqsadi, vazifalari va ko‘rsatkichlari aholining tashishga bo‘lgan ana shu ehtiyojlari bilan aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бычков, В. П. Предпринимательская деятельность на автомобильном транспорте. учебное пособие - Воронеж, 2010. - 420 с.
2. МЕЖДУНАРОДНЫЕ АВТОПЕРЕВОЗКИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ МУЛЬТИМОДАЛЬНЫХ ПЕРЕВОЗОК. Н Шарипова, М Рахматуллаев
3. Косимов, С. Х., & Нишонов, А. О. У. (2021). Пути развитие логистической системы при организации перевозки грузов на международных маршрутах. Academic research in educational sciences, 2(3).
4. Ю. М. Неруш. Коммерческая логистика Москва ЮНИТИ 1997г.
5. Исроилов, Ф. И., & Норкулов, А. Я. (2021). ЮКЛАРНИ ИСТЕЪМОЛЧИ МАНЗИЛИГА ЕТКАЗИБ БЕРИШ ЖАРАЁНИНИ БОШҚАРИШ МОДЕЛИ. Academic research in educational sciences, 2(1).
6. “JAMOAT TRANSPORTIDA TRANSPORT XIZMATI KO’RSATISH SIFATINI OSHIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH” N.Sharipova,M.Anvarova
7. Шарипова, Н., & Рахматуллаев, М. (2021). К ВОПРОСУ О НАЗНАЧЕНИЕ И КЛАССИФИКАЦИЯ ДОРОЖНЫХ КОНТРОЛЕРОВ В СИСТЕМЕ ДОРОЖНОЕ УПРАВЛЕНИЕ. InterConf.
8. Хошимова, Ш. (2017). Автомобиллар учун экологик тоза ёқилғи олиш технологияси.. In Актуальные вызовы современной науки XI Международная научная конференция (pp. 26–27).
9. “TRANSPORT-LOGISTIK SERVISIDA YUKLARNI QAYTA ISHLOVCHI TERMINALLAR VA OMBORXONA KOMPLEKSLARINI MAHALLIYLASHTIRISH OMILLARI” Хошимова, Ш., Н. Шарипова

**O‘ZBEKISTONDA TRANSPORT SOHASINING RIVOJLANTIRISH
TENDENSIYALARI**

(XX-asrning ikkinchi yarmida Toshkent viloyati misolida)

Saidusmanov Baxrom Abduganievich
ChDPU O‘zbekiston tarixi kafedrası katta o‘qituvchisi
Email:baxrom.said@mail.ru

Annotasiya: Ma'lumki, O‘zbekistonda ikkinchi jaxon urushidan keyin sonoat, ishlab chiqarish, transport tizimi va yo‘llar birmuncha og‘ir axvolda edi. 20 asrning 70-80 yillariga kelib ushbu tizimda ancha rivojlanish bo‘lgan. Ayniqsa, Toshkent viloyatida transport tizimidagi taraqqiyot va uning jamiyatga ta'siri ancha samarali bo‘lgan. Ushbu maqolada ushbu yillardagi transport tizimidagi ijobiy o‘zgarishlar xaqida ma'lumot beriladi.

Kalit so’zi: Avtomobil transporti, Avtomobil yo’llari, Avtokorxonalar, yuk avtokorxonalari, yuk tashish, sanoat korxonalari, aloqa punktlari, yo’lovchilar va yuk tashish hajmlari, yangi avtoxo’jaliklar.

Abstract: It is known that after the Second World War in Uzbekistan, production, transport system and roads were in a somewhat difficult situation. By the 70s and 80s of the 20th century, this system had received significant development. Especially in the Tashkent region, progress in the transport system and its impact on society were much more effective. This article will tell you about the positive changes in the transport system over the years.

Keywords: Automobile transport, Highways, parking lots, freight car parking, freight transport, industrial enterprises, communication points, passenger and freight traffic volumes, new auto repair shops.

Avtomobil transporti xalq xo’jaligining murakkab tarmog’i bo’lib, mehnat unumdorligi va avtomobil xo’jaliklarining rentabel ishlashiga juda ko’p faktorlar ta’sir ko’rsatgan. Avtomobil qatnovidan, prise va priseplardan keng ko’lamda, avtomashinalarning yuk ko’tarish quvvatidan to’g’ri foydalanish, moddiy vositalarni tejab ishlatish, avtomashinalarning joriy ta’miri sifati, mashinalarning liniyalarida ishlash muddati, mehnat va ish haqining to’g’ri tashkil qilish avtomobil transportida mehnat unumdorligiga bevosita ta’sir ko’rsatdi. 1960-1980 yillarda umum foydalanadigan avtomobil transporti korxonalari butun avtomobil transportida oldingi o’rinlarni mustahkamlab oldi. Bu korxonalari harakatidagi tarkiblardan unumli foydalanish maqsadida ilg’or usullarni joriy etib, yuk va yo’lovchilar tashish jarayoni oqilona tashkil qilingan yirik korxonalarga aylandi.

Toshkent viloyati aholi zichligi jihatidan etakchi o’rinni egallaydi. Bu hududda joylashgan sanoat shaharlari hamda qishloqlarida yashovchi ko’p millionli yo’lovchilarning avtotransportlarga bo’lgan ehtiyojlarini qondirish, hizmat sifati va madaniyatini oshirish, yo’lovchilarni ibelgilangan qisqa muddatlarda, aniq harakatlanish jadvali asosida manzillarga etkazish g’oyat muhim va dolzarb vazifadir. Shu jihatdan korporasiyaning yirik tizimlaridan hisoblangan “Toshviloyatyolovchitrans” konserni korxonalarida qanday chora-tadbirlari ko’rilayaati, konsern tizimlarida ayniqsa bozor munosabatlari va isloh qilinayapti.

Avtobuslarda yo’lovchilar tashish ham yildan yilga o’sdi. Bunda respublikada avtobus marshrutkalarining ko’payishi va avtobus qatnaydigan yo’llar uzayishi asosiy sabablardan biri bo’ldi. Agar 1953 yilda respublikada hammasi 325 avtobus, 126 avtobus marshruti va uning uzunligi 3044 kilometr bo’lib, 42,6 million yo’lovchi tashilgan bo’lsa, 1965 yilga kelib avtobuslarning soni 32564 kilometr, tashilgan yo’lovchilar soni 629,7 million kishini tashkil qildi, shundan 163,4 million yo’lovchi shaharlararo avtobuslarda tashildi. Shu yillarda engil taksi va yuk mashinalariko’paydi. Yo’lovchilar tashish oshdi. 1965 yilda engil taksi mashinalarining umumiy yo’l bosishi 188,5 million kilometrni, shunday pulli yo’l bosishi 154,5 million kilometrni tashkil etdi. [1]

Bu yillarda avtomobil transportida yo’lovchilar tashish ham to’xtovsiz oshib bordi. 1979 yilda yo’lovchilar oboroti 1960 yilga nisbatan 6,2 marta oshib, 1 pasajirning o’rtacha yo’l bosishi shaharlar ichida 5,6 km ni va shaharlararo -41,2 km ni tashkil etdi. 1968 yilning 1 dekabrda yo’lovchi tashaiga ixtisoslashtirilgan Toshkent viloyat avtotresti tashkil etilganida, uning tarkibida 10 ta avtobus taksomotor saroyi va xo’jalik hisbidagi “Toshkent” avtovokzali bor edi, jami 10 avtobus, 112 ta engil taksimotorlar viloyat yo’lovchilari xizmatiga jalb qilingan edi. Yangi trestga katta ishlab chiqarish tajribasiga ega mutaxssislar

V.A.Podkovirin, V.P. Skvorsov rahbar qilib tayinlandi. Bo'ka, Yangibozor, Oqqo'rg'on, Yangiyo'l, To'ytepa, Bo'stonlik, Keles va Angren avtosaroylarida ishlab chiqarish korpuslari qurilib, texnika jihozlari bilan ta'minlandi, avtobus va engil avtomobillarni yuvish, agregatlarni ta'miralsh va diagnostika postlari ishga tushirildi, atrof muhitni muxofaza qilish choralari ko'rildi.[2]

1970 yil oxiriga kelib avtotrest xo'jaliklarida jami avtobuslar soni 1250 ta, engil taksomotorlar soni esa 235 taga etkazildi, va yakunlari bo'yicha 174,3 million yo'lovchi tashailib 23 mln. so'mdan ziyod daromad olindi. Jami 256 ta yo'nalishda avtobuslar uzluksiz harakat qildilar. Bulardan tashqari 115 ta shaharlarda, 158 tasi shahar atrofi va 68 tasi shaharlararo yo'nalishlarda xizmat ko'rsatdilar. [3]

70-yillarda avtoboshbekat va avtoshohbekatlarlar qurish avj oldirilib To'ytepa avtobus taqsimotlar saroyi tashkil topdi. 2200 ta yo'lovchiga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan va O'rta Osiyoda eng yirik “Toshkent” avtoboshbekati qurib bitkazildi va poytaxtnining go'zal binolaridan biriga aylandi. Bu bekat Respublikaning barcha viloyatlari markazlari, qo'shni respublikalar poytaxtlari va yirik shaharlariga har kuni 45 ta yo'nalish bo'yicha 225 ta avtobus jo'natib turdi. Uning perronlarida 52 ta yo'lovchi jo'natish maydonchalari joylashtirildi. Toshkent viloyati bo'yicha 96 ta yangi yo'nalishlar tashkil etildi.[4]

Shu jumladan 12 ta yangi yo'nalish ochilib, aholi yashash manzillari yirik ishlab chiqarish korxonalari bilan bog'landi. Chirchiqda “Korpolaktam” va “Elektroximprom” bilan, Bekobodda “UMZ” bilan, Angren va Yangiobozor korxonalari bilan, Olmaliqda “Tog' metallurgiya kombinati” va “Ximprom zavodi” bilan transport qatnovi yo'lga qo'yildi. Shahar atrofi yo'nalishlari “Toshkent -Chirchiq”, “Toshkent-Yangi yo'l”, “Toshkent-To'ytepa” oraliqida avtobus qatnay boshladi. Vengriyada ishlab chiqarilgan “Ikarus” rusumli avtobuslar harakat tarkibiga kelib qo'shildi. To'ytepa, Angren, Pskent, Oqqo'rg'on va Yangibozor avtobosh va avtoshohbekatlari qurilib ishga tushirildi.

Bu usul boshqa avtosaroylarda ham qo'llanib, yil oxiriga ularning soni 52taga etkazildi va ular 733 avtobus bilan 63 ta yo'nalishda xizmat ko'rsatdilar. Chirchiq avtosaroyiga qarashli G.Veys, va F.Abdullaev boshliq brigadalar “Toshkent -Chirchiq” tezyurar yo'nalishini namunali yo'nalish darajasiga ko'tarildi.[5]

Mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritish arafasida “Toshviloyaty'lovchitrans” qoshida 17 ta avtosaroy, 6 ta avtoshohbekat va avtoboshbekatlar, avtochiptaxonalar faoliyat olib borardi. Keyingi yigirma yil davomida viloyat tizimida quyidagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishildi, jumladan: avtobuslar soni 840 tadan 899 taga, engil avtomobillar soni 170 tadan 468 taga, avtobuslarning umumiy sig'imi 32485 yo'lovchidan 83300ga etkazildi, avtobuslardan foydalanish darajasi 0,71 dan 0,736ga etdi, avtobus yo'nalishlari soni 680tadan 1598 taga, jami tashilgan yo'lovchilar soni 138,7 nafardan 377,4 mln nafarga etkazildi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar va ular doirasida qabul qilinayotgan davlat dasturlarida respublikamizning transport-logistika sohasini rivojlantirish hamda mamlakatning tranzit salohiyatini oshirish masalasiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Zero, har tomonlama rivojlangan transport tizimi ichki va tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Shu nuqtai nazardan, davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakatimiz transport-logistika tizimini jahon standartlariga moslashtirish, xalqaro ahamiyatdagi transport koridorlarining o'tkazish qobiliyatini oshirish,

yangi arzon va qisqa transkontinental tranzit koridorlarini shakllantirish, shuningdek, mintqa mamlakatlarining jahon transport tizimi bilan o‘zaro uyg‘unlikdagi rivojlanishi ta’minlashdan iboratdir.

Prezidentimiz tomonidan 2021 yilning 9 avgust kuni “Transport to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunning imzolanishi bilan avtomobil, havo, temir yo‘l, suv va shahar yo‘lovchi transporti faoliyati va hamkorligining huquqiy, iqtisodiy hamda tashkiliy asoslari va tamoyillari belgilab berildi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur qonun mamlakatimiz transport tizimining holati va rivojlanishi uchun juda muhim ahamiyat kasb etib, uning boshqa infratuzilma tarmoqlari bilan birga jamiyat faoliyati uchun asosiy sharoitlarni ta’minlashi, ijtimoiy-iqtisodiy va tashqi siyosat maqsadlariga erishishda muhim element sifatida xizmat qilishi shubhasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ubaydullaev I, Abrorov Z, Zahriddiov G‘. O‘zbekiston transporti . O‘zbekiston SSR “Bilim” jamiyati. 1968. -B.13.
2. Xazratkulov A. Reshenie socialnix voprosov v Uzbekistane. –Tashkent, 1991. – S. 24.
3. Xodjaev B.A. Avtomobil transporti iqtisodi. Darslik.-T.: O‘qituvchi. 1982. –B.21.
4. Xaydarov M. Kommentariy k nekotorim pervoistochnikam po istorii Uzbekistana // Tarixning noma'lum sahifalari. Ilmiy maqolalar. Hujjat va materiallar. Xotiralar. To‘rtinchi kitob. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2013. – B. 218-233.
5. Sosialno-ekonomicheskoe razvitie Uzbekistana za godi Sovetskoy vlasti. Otvetstvenniy redaktor akademik AN Uz SSR, doktor ekonomicheskix nauk, professor I.Iskanderov. – Tashkent: Uzbekistan, 1984. – S. 207.

TRANSPORT LOGISTIKA TIZIMIDA MODDIY OQIM JARAYONLARINI QO‘LLASH USULLARI

Ergashov Adham Akmalovich
“O‘zbekiston pochta” AJ bosh mutaxassis
a.ergashov@pochta.uz
adham.nur@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada logistika tizimida moddiy oqim jarayonlarini takomillashtirish bosqichlar va yuzga kelishi mumkin bo‘lgan kamchiliklarni bartaraf qilish va tovarlarni yetkazib berish, xom ashyo, materiallar, buntlovchi qismlar va ehtiyot qismlarni xarid bozoridan korxona omborlariga olib o‘tish jarayonlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: logistika, xomashyo, materiallar, korxonalar logistika tizim, omborlar, moddiy-texnik, moddiy oqimlarni, tovar, savdo, logistika funksiyasi.

Annotation: The article discusses the stages of improvement of material flow processes in the logistics system and the elimination of possible shortcomings and the processes of delivery of goods, raw materials, materials, components and spare parts from the procurement market to the warehouses of the enterprise.